O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

ILOVALI KONSTRUKSIYALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kenjayev Mirzoxid Ergashevich
Samarqand davlat arxitektura – qurilish universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezis doirasida badiiy matnda ilova konstruksiya elementlarining strukturaviy va funksional xususiyatlarining ifodalanishini ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: Ilova, ilova hodisasi, ilovali elementlar, ilova konstruksiya, ilovali konstruksiyani shakllantirish, ilovali konstruksiyalarning strukturaviy – funksional xususiyatlari

Ilova hodisasi hozirgi kungacha qanchalik o‘rganilish tarixiga ega bo‘lmasin, u doimo har qanday tilshunoslik fani doirasida eng muhim, kam o‘rganilgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolaveradi. Chunki ilova hodisasi nazariyasining tarafdorlari bu mavzuga ko‘pincha J. B. Buronovning ta’biri bilan aytganda yuzaki yondashishga harakat qilishadilar. Boshqacha qilib aytganda, ilova hodisasining lingvistik mohiyatini, shuningdek u bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina xususiyatlarni (strukturaviy, ma’noviy, tipologik, fonetik va boshqalar) grammatika fani nuqtai nazaridan yechishga harakat qilishadi-yu, biroq unga bog‘liq bo‘lgan bunday xususiyatlarni matn nuqtai nazaridan talqin etishmaydi. Natijada ilova hodisasining ko‘p tomonlari izlanish doirasidan chetda qolganday tuyuladi. Ba’zi hollarda ilova hodisaning semantik, uslubiy va boshqa xususiyatlari alohida o‘rganiladi, lekin ularning ana shunday xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ichki qonuniyatlari izlanish ramkasidan chetda qolaveradi. Natijada, ilova hodisasini o‘rganishga nisbatan bo‘lgan bunday munosabat kutilgan natijaga olib kelmaydi.

Ilova konstruksiyalar doirasida ilovali elementlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy – tadqiqot ishlarini o‘rganish orqali quyidagilarni sanab o‘tish mumkin, ya’ni ilovali konstruksiyalarning quyidagi xususisyatlarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Dastlab, ilovali elementlarning murakkab sintaktik butunlikda bajarib keladigan vazifalarni sanab o‘tsak:

- Monofunksionallik;
- polifunksionallik;
- remalik;
- hokimlik;
- tobelik;
- til vositalarini tejash va hakazo.

Yuqorida sanab o‘tilgan ilovali elementlarning vazifalarini ko‘rstib bergan ko‘pgina ilmiy maqolalar va tadqiqot ishlari yartilishiga qaramasdan, nemis tilida ilovali elementlarning asosiy xususiyatlarini aniqlash va ularni tahlil qilish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qator ilmiy tadqiqot ishlari va monografiyalarni o‘rganish natijasida chiqarilgan xulosalar fikrimizni tasdiqlaydi.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, nemis adabiy tilida ko‘plab murakkab sintaktik konstrusiyalar mavjud bo‘lib, ulardan biri ilovali konstruksiya hisoblanadi. Ilovali

konstruksiyani shakllantirishda grammatik komponentlar ishtirok etadi, ana shunday komponentlar sifatida gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gap turlari, turli obortlar xilma – xil funksiyalarni bajarib keladi. Bunday komponentlar ilovali konstruksiyalar doirasida, ya’ni matn doirasida o‘zining strukturaviy – funksional, grammaik, semantik, va stilistik xususiyatlarni namoyon qiladi.

Ilovali konstruktsiyaning umumiy ko‘rinishi va ayrim xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun quyidagi misolni keltiramiz.

Und damit sollte nicht nur gesagt sein, daß Gottlieb sich zu allen, die auf Pramkes Seite standen. Zu den Roten. (Brunns Marianne. Die Lichtung).

Bu ilovali konstruktsiya ikki qismdan iborat. Birinchi qism – asosiy qism, ikkinchisi – ilovali qism. So‘zlovchining asosiy fikri „Und damit sollte nicht nur gesagt sein, daß Gottlieb sich zu allen, die auf Pramkes Seite standen“ qismida bayon qilingan. Shuni ham qayd etish mumkinki, ilovali qism asosiy qismning mazmunini to‘ldirib, konkretlashtirib keladi. Shuning uchun ham ilova qilingan so‘nggi qism, misoldagi oldingi fikrga qo‘shimcha izoh keltirib, u qiz bilan birga ketishga istak bildirgan kishilarni aniqlab keladi. Ya’ni, ilovali element “Zu allen” asosiy qismning aniq bir bo‘lagini, ya’ni “allen” so‘zini konkretlashtirib keladi. Agar yuqorida keltirilgan bir butun ilova konstruktsiya, oddiy konstruktsiya yordamida berilganda edi, u holda bu konstruktsiya tarkibidan biron – bir muhim ma’noga ega bo‘lgan bo‘lakni ajratish qiyinroq bo‘lar edi.

Tadqiqotlarimizda kelib chiqib, aytish mumkinki, eng ko‘p qo‘llanadigan ilovali konstruktsiyalar – turli semantikali qo‘shimcha xabarlarni ta’kidlab ko‘rsatuvchi ilovali konstruktsiyalardir. Chunki ular to‘laligicha asosiy funksiyalar hisoblanuvchi – xabar berish va ta’sir ko‘rsatish funktsiyalariga mos keladi. Bundan tashqari, ushbu turdagi konstruktsiyalar muallifga ma’lumotni saralash va muhim axborotni eng ko‘p urg‘u beriladigan joyga joylashtirish imkonini beradi. Bu esa asosiy ifodada (muallif gapida) yuqori sermahsullikni ta’minlash va ta’sir kuchini oshirish uchun xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda murakkab strukturaviy ilova qurilmalarining tuzilish nuqtai nazaridan ham, gap bo‘laklari o‘rtasidagi semantik munosabatlar nuqtai nazaridan ham o‘rganish tadqiqotchilarning e’tiborini tobora o‘ziga jalb qilmoqda. Biroq sintaktikaning boyligi va xilma – xilligi dunyo tillarida ma’lum ma’nolarni ifodalashi kerakligini anglatadi va ularning turli xil muqobillari shunchalik ko‘pki, murakkab jumlalarni o‘rganish muammosi tugallangan deb hisoblash mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedova B.M. Lion Feuchtwanger ijodida ilova hodisasi. Nomzodlik dissertatsiyasi. Samarqand.1998 y.

2. Valgina N. S. Присоединительные конструкции в современном русском языке. М.: “Высшая школа”, 2004.

3. Турсунов Б.Т., Облакулова С.Х. Библиографический указатель по вопросам синтаксического целого, присоединения, парцеллирования – Самарканд Изд-во СамГУ 1982г. стр.76

4. Bushuy A. M. Лингвистика текста и речевая деятельность. Matn va uning talqini. Xalqaro ilmiy – nazariy konferentsiya materiallari (Samarqand 16-18 – noyabr 2000 yil). -Samarqand: SamDChTI, 2000.

5. Axmedova B.M. Ilova qurilmalarinig ba'zi bir strukturaviy xususiyatlari (L. Feuchtwanger asarlari asosida) – Samarqand SamDU 1997.

CHET TILINI O‘RGANISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYA TURLARINING AHAMIYATI

Axmedova Sevara Raxmanqulovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali tayanch doktoranti
axmedovas@jbnuu.u

Annotatsiya: Kommunikativ kompetentsiya shaxslararo muloqotda asosiy tushuncha bo‘lib, kundalik hayotimizning ko‘plab sohalarida, kasbiy o‘zaro munosabatlardan tortib shaxsiy munosabatlarda va professional muhitda asosiy rol o‘ynaydi. U odamlarga o‘z fikrlari, his-tuyg‘ulari va niyatlarini muvaffaqiyatli muloqot qilish va izohlash imkonini beradigan bir nechta o‘lchovlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada kommunikativ kompetentsiyaning har xil turlari va ularning muloqot jarayonida tutgan o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, ko‘nikmalarni, kompetentsiyaning turlari, til, muloqot, nutq, chet tili, linvistika, suhbat.

Chet tilini o‘rganish murakkab va ko‘p qirrali vazifa bo‘lib, u shunchaki lug‘at va grammatika qoidalarini o‘rganishdan ancha uzoqdir. O‘quvchilarga tildan samarali va vaziyatga mos ravishda foydalanishga imkon beradigan turli xil kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish asosiy rol o‘ynaydi. Kommunikativ kompetentsiyaning turli jihatlari chet tilini o‘rganishga qanday ta'sir ko‘rsatishi va rag‘batlantirilishi ta'kidlanadi. . U samarali muloqotni ta'minlash uchun birgalikda ishlaydigan bir necha turdagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi[1].

1. Lingvistik kompetentsiya

Chet tillarini o‘rganish kontekstida lingvistik kompetentsiya asosiy hisoblanadi va u tildan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish qobiliyatini anglatadi. U tilning tovushlari, shakli va tuzilishi, jumladan grammatika, sintaksis va leksika haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi[3]. Tilni to‘g‘ri tushunish va undan to‘g‘ri foydalanish uchun o‘quvchilar ushbu sohalarda mustahkam poydevor yaratishlari muhim. . Yuqori lingvistik qobiliyatga ega bo‘lgan shaxs o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifodalashi va suhbatdoshlarning til normalarini tushunishi mumkin. Ushbu kompetentsiya asosiy hisoblanadi, chunki u boshqa barcha muloqot qobiliyatlari uchun asos bo‘ladi. Bu siz tilni ishlatayotganingizda, masalan, so‘zlar bilan jumla qurishingiz, to‘g‘ri so‘z shakllarini tanlashingiz va tilning umumiy qoidalariga rioya qilishingiz kerak deganidir. Keling, sizga bir misol keltiray: